G‘IJDUVON MILLIY HUNARMANDCHILIK SO‘ZLARINING DERIVATSION XUSUSIYATLARI

Navoiy davlat universiteti Tillar fakulteti O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi 2-bosqich magistranti Raximova Sarvinoz Olimovna

Annotatsiya. Ushbu tezisda G‘ijduvon milliy hunarmandchilik leksikasining derivatsion xususiyatlari yoritilgan. Hunarmandchilik terminlarining affiksatsiya va analitik usullar orqali hosil bo‘lishi, shuningdek, -chi, -lik, -la, -ish, -lash, -lashtirish kabi affikslarning so‘z yasashdagi faolligi tahlil qilingan. Sintetik va analitik terminlarning sohaviy leksikani shakllantirishdagi o‘rni ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: G‘ijduvon, hunarmandchilik, leksika, termin, derivatsiya, affiksatsiya, sintetik termin, analitik termin, so‘z yasalishi.

Abstract. This thesis examines the derivational features of the national handicraft lexicon of Gijduvan. It analyzes the formation of handicraft terms through affixation and analytical methods, with particular attention to the productivity of the affixes -chi, -lik, -la, -ish, -lash, and -lashtirish. The role of synthetic and analytical terms in the formation of specialized handicraft vocabulary is also highlighted.

Keywords: Gijduvan, handicrafts, lexicon, term, derivation, affixation, synthetic term, analytical term, word formation.

Аннотация. В тезисе рассматриваются деривационные особенности лексики национальных ремёсел Гиждувана. Анализируются способы образования ремесленных терминов посредством аффиксации и аналитических конструкций, а также продуктивность аффиксов -chi, -lik, -la, -ish, -lash, -lashtirish. Раскрывается роль синтетических и аналитических терминов в формировании специальной ремесленной лексики.

Ключевые слова: Гиждуван, ремёсла, лексика, термин, деривация, аффиксация, синтетический термин, аналитический термин, словообразование.

G‘ijduvon milliy hunarmandchilik leksikasining muhim jihatlaridan biri uning derivatsion xususiyatlarga boy ekanligidir. Tilshunoslikda derivatsiya “Har qanday tilda derivatsiya mahsuli bo‘lgan terminlar ko‘plab uchraydi”. Hunarmandchilik terminlari tarkibida ham turli affikslar, semantik kengayishlar hamda sintaktik usullar orqali yuzaga kelgan yasama birliklar keng uchraydi. Bu esa mazkur leksik qatlamning doimiy ravishda boyib va rivojlanib borayotganligini ko‘rsatadi.

Affiksatsiya ulida terminlar hosil qilish. Hunarmandchilik terminlarining derivatsion xususiyatlari, avvalo, affiksatsiya usuli orqali namoyon bo‘ladi. O‘zbek tilida yangi termin hosil qilishda qo‘shimchalar muhim vosita hisoblanadi. Ayniqsa, hunarmandchilikka oid so‘zlarda “-chi”, “-lik”, “-kor”, “-la”, “-li”, “-ish”, “-lash”, “-lashtirish” kabi affikslarning faol qo‘llanishi kuzatiladi.

Kasb nomlarini hosil qiluvchi **“-chi”** qo‘shimchasi hunarmandchilik leksikasida eng faol derivatsion vositalardan biridir. Masalan, “kulol” so‘zidan “kulolchi”, “temir” so‘zidan “temirchi”, “naqsh” so‘zidan “naqshchi” kabi birliklar hosil bo‘ladi. Ushbu yasama birliklar ma’lum hunar bilan shug‘ullanuvchi shaxsni anglatadi. Ayniqsa, “temirchi”, “kulolchi”, “kashtachi” kabi terminlar kasb-hunar egalarining nomlanishida keng qo‘llanadi.

Hunarmandchilikka oid abstrakt tushunchalarni hosil qilishda **“-lik”** affiksi muhim rol o‘ynaydi. Masalan, “kulol” asosidan “kulolchilik”, “temir” asosidan “temirchilik”, “zargar” asosidan “zargarlik” birliklari yuzaga kelgan. Ushbu terminlar ma’lum kasb turi yoki faoliyat sohasini ifodalaydi. Shu sababli “-lik” qo‘shimchasi hunarmandchilik leksikasining terminologik tizimini shakllantirishda faol qatnashadi.

Hunarmandchilik leksikasida fe’l yasovchi qo‘shimchalarning ham faol qo‘llanishi kuzatiladi. Masalan, “naqsh” so‘ziga **“-la”** qo‘shimchasining qo‘shilishi orqali “naqshlamoq” fe’li hosil bo‘ladi. Xuddi shuningdek, “sayqal” asosidan “sayqallamoq”, “jilo” asosidan “jilolamoq” kabi birliklar yuzaga keladi. Sifat yasovchi qo‘shimchalar ham derivatsion tizimning muhim qismidir. Masalan,

“naqshli”, “bezakli”, “jiloli”, “silliq”, “yaltiroq” kabi sifatlar buyumning tashqi ko‘rinishi va sifat belgisini ifodalashga xizmat qiladi. Ayniqsa, kulolchilik va kashtachilikda buyumlarning estetik jihatini tasvirlashda bunday birliklar faol ishlatiladi.

-sh (ish) yordamida hosil qilingan terminlar. Masalan: Teriga ishlov berish jarayonida qo‘llanilgan tanlash, tozalash, tuzlash, quritish, ivitish, silliqlash, qoliplash, kesish, tikish, bezak berish kabi terminlar -ish affiksi orqali hosil qilingan. Kulolchilikda ivitish, tob berish, quritish, pishirish, bezash terminlari uchraydi. Zardo‘zlik va kashtachilikda qatorlab tikish, qiya tikish, zamindo‘zi tikish, chizish, tozalash, dazmollash kabi terminlar ishlatiladi. Beshikchilik va duradgorlikda kesish, yo‘nish, shakl berish, joylashtirish, bo‘yash, silliqlash, qotirish terminlari qo‘llansa, tandirsozlikda qorish, pishitish, biriktirish, ishlov berish kabi terminlar faol ishlatiladi. Supurgichilikda quritish, saralash, bog‘lash, bo‘yash terminlari, qandolatchilikda esa eritish, aralashtirish, sovutish, cho‘zish, oqartirish, ko‘pirtirish kabi terminlar -ish affiksi yordamida yasalgan terminlar hisoblanadi. Bu affiks lingvistik manbalarda “turkiy tillardagi eng sermahsul” affiks ekanligi, ot, sifat hamda harakat nomi yasashga xizmat qilgani”.

-lash- tozalash, tuzlash, silliqlash, qoliplash, saralash, bog‘lash, shakllash, bo‘laklash, bezaklash. Mazkur terminlar hunarmandchilikning turli sohalarida, jumladan teriga ishlov berish, kulolchilik, duradgorlik, supurgichilik va qandolatchilik jarayonlarida keng qo‘llanadi. Ular ishlab chiqarish jarayonining bosqichma-bosqich amalga oshirilishini ifodalab, materialning tayyor mahsulotga aylanish jarayonini aniq va izchil aks ettiradi. Shu sababli tozalash, tuzlash, silliqlash, qoliplash, saralash, bog‘lash va bo‘yash kabi birliklar sohaviy terminologiyaning asosiy yadro qatlamini tashkil etadi. A.Hojiyevning o‘zbek tilida so‘z yasalishi masalasiga bag‘ishlangan monografiyasiga murojat qilganimizda, unda birinchi galda, -lash fe’l yasovchi -la va o‘zlik nisbat formasi yasovchi -sh affikslarining birikishidan hosil bo‘lgan qo‘shma affiks ekanligi ta’kidlanib, uning fe’l yasovchi xususiyati yetarli dalillar bilan isbotlab berilganini ko‘ramiz.

-lashtirish affiksi -tabiiylashtirish, ranglashtirish, shakllashtirish, silliqlashtirish, qoliplashtirish, bezaklashtirish, saralashlashtirish hamda tuzlashtirish kabi birliklarni kiritish mumkin. Mazkur terminlar hunarmandchilik jarayonlarida materialga ishlov berishning turli bosqichlarini ifodalaydi. Ular buyumning tashqi ko‘rinishini o‘zgartirish, unga estetik jihat berish yoki texnologik jihatdan tayyor holatga keltirish jarayonlarini aniq va izchil ifodalashga xizmat qiladi. Bu affiksli fe’llar O‘zbek tiliga 20-yillardan boshlab tilshunoslik sohalarda qo‘llana boshlangan. Professor A.K. Borovkov _la+sh+tir kabi elementlarning qo‘shiluvidan yasalgan va o‘zbek tilida paydo bo‘lgan murakkab shaklli -lashtirish affiksi xususida shunday deb yozadi: “-lashtir ruscha _irov (-tv), i-zirov (-ti) suffiksli ruscha fe’llarni tarjima qilish zaminida paydo bo‘lganki, ular o‘z navbatida kelib chiqishi o‘zga tildan bo‘lgan suffikslardir: qiyoslang, Nemischa kollektivirent (kollektivizirovati) “kollektivlashtirmoq”) va h. k.

Sintetik asosli hunarmandchilik terminlari. Sintetik terminlar asosan kasb-hunar turi, ish jarayoni, buyumning holati, ishlov berish bosqichlari hamda vosita nomlarini ifodalashga xizmat qiladi. Hunarmandchilik leksikasida ayniqsa -lik, -chi, -lash, -lan, -tirish, -ma kabi qo‘shimchalar faol qo‘llanadi. Matnda uchraydigan temirchilik, terichilik, kulolchilik, zardo‘zlik, kashtachilik, beshikchilik, tandirsozlik, duradgorlik, supurgichilik, choponchilik, qandolatchilik kabi terminlar -lik affiksi yordamida hosil bo‘lib, kasb-hunar va faoliyat sohalarini anglatadi. Ushbu qo‘shimcha o‘zbek tilida soha, kasb yoki holat ma’nosini ifodalovchi mahsuldor affikslardan biri hisoblanadi.

Hunarmandchilik jarayonlarini ifodalovchi terminlarda esa -lash, -lan, -tirish kabi affikslar faol ishlatilgan. Jumladan, sayqallash, tozalash, bezash, sovutish, qizdirish, bolg‘alash, o‘lchash, silliqlash, bo‘yash, oqartirish, ko‘pirtirish, biriktirish, quritish, ivitish, pishitish, paxtalash kabi terminlar buyumga ishlov berish, holatini o‘zgartirish yoki tayyorlash jarayonlarini bildiradi. Bu terminlar hunarmandchilik faoliyatining amaliy bosqichlari bilan chambarchas bog‘liqdir. Shuningdek, ayrim sintetik terminlar -ma, -im affikslari orqali hosil bo‘lib, buyum,

natija yoki vosita ma’nosini anglatadi. Masalan, aralashma, damlama, bezak, o‘lcham, qiyqim kabi terminlar shular jumlasidandir. Ular tayyor mahsulot, ishlov natijasi yoki jarayon bilan bog‘liq tushunchalarni ifodalaydi. Kasb egasi nomlarini bildiruvchi temirchi, terichi, kashtachi, qandolatchi, tandirsoz, zardo‘z, duradgor kabi terminlar ham sintetik usul asosida yasalgan bo‘lib, ular muayyan hunar bilan shug‘ullanuvchi shaxslarni anglatadi. Bu esa hunarmandchilik terminologiyasida affiksatsiya usulining mahsuldor ekanligini ko‘rsatadi.

Analitik shakldagi hunarmandchilik terminlari: Milliy hunarmandchilik terminologiyasida analitik shaklli terminlar ham keng qo‘llanadi. Tilshunoslikda analitik shakl deb ikki yoki undan ortiq mustaqil so‘zlarning birikishi orqali hosil bo‘lgan terminlarga aytiladi. Bunday terminlar affikslar yordamida emas, balki so‘z birikmasi shaklida yasaladi. Hunarmandchilik terminlari tarkibida o‘yma naqsh, usta belgisi, geometrik naqshlar, to‘lqinsimon shakllar, islimiy naqshlar, nuqtali halqa, ikki chiziqli ramka, oyoq kiyim, uy-ro‘zg‘or buyumlari, chiziqli naqshlar, guldor naqshlar, o‘simliksimon naqshlar kabi terminlar analitik shaklda qo‘llangan. Shuningdek, qadimgi eron islimiysi, grek myandirasi, buyuk ipak yo‘li kabi tarixiy-madaniy birliklar ham bir necha mustaqil so‘zlarning birikishi asosida hosil bo‘lgan. Bundan tashqari, qimmatbaho duxoba, zar iplar, to‘y sovg‘alari, milliy suvenirlar, yostiq jildlar, kelin seplar, doira shaklli naqshlar, bodom shaklli naqshlar singari terminlar buyumning vazifasi va tashqi belgisini ifodalab kelgan. Beshikchilik va duradgorlikka oid yo‘rga oyoqchasi, yog‘och tayanch, tayanch yog‘och, stanok arra, qo‘l arra, stanok randa, qo‘l randa kabi terminlar esa hunarmandchilik uskunalari va qismlarini aniq ifodalash uchun xizmat qilgan.

Tandirsozlik va qandolatchilik sohalarida ham analitik terminlar faol uchraydi. Masalan, sariq tuproq, bochka tandir, ko‘chma tandir, oq sim, qizil novvot, sariq novvot, saqich holva, soch holva, gardish holva kabi terminlar predmetning turi, rangi yoki shakliga ko‘ra nomlangan.

Xulosa G‘ijduvon milliy hunarmandchilik leksikasi o‘zining boy derivatsion xususiyatlari bilan ajralib turadi. Unda yangi so‘z va terminlar asosan **affiksatsiya**

usuli (jumladan, *-chi, -lik, -la, -sh, -lash, -lashtirish* kabi sermahsul qo‘shimchalar) hamda ikki yoki undan ortiq mustaqil so‘zlarning birikishi orqali yuzaga keladigan **analitik shakllar** asosida hosil qilinadi. Bu jarayonlar hunarmandchilik sohasidagi kasb-hunar turlari, ishlov berish bosqichlari, buyum va uskunalarning nomlarini aniq hamda izchil ifodalashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1.Odilboyeva U. "O‘zbek va ingliz tillarida terminlar hosil bo‘lishining qiyosiy tahlili." *Mahalliy va xalqaro konferensiyalar platformasi* 1 (2026): - B. 32-36.

2.Begmatov E. Hozirgi o‘zbek adabiy tilining leksik qatlamlari. Toshkent: Fan, 1965. – B.143.

3.Borovkov A. K. Izmenenie v oblasti uzbekskoy leksiki I noviy alfavit. Toshkent: Uz FAN SSSR. 1947. B.29

4.Ibrogimova D. “Devonu lug‘ot it-turk” asaridagi kasb-hunar leksikasining zamonaviy turkiy tillardagi davomiyligi." *Qo‘qon DPI. Ilmiy xabarlar jurnali* 8.2 (2026): - B.434-437.

5.Nurullaeva R. “Zardo‘zlikning tarixi va zamonaviy talqini” // “Top Izlanuvchi – 2025”. 325 b